

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

LEXICAL-STYLISTIC AND CONTEXTUAL-PRAGMATIC CATEGORIES OF THE SCIENCE-FICTION LITERARY TEXT: A CASE STUDY OF KAZUO ISHIGURO'S KLARA AND THE SUN

Buviniso Mashrabova*Assistant Lecturer**Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**Andijan State Pedagogical Institute**E-mail: buvinisomashrabova@gmail.com**Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: science fiction, lexical-stylistic category, pragmatic stylistics, semantic reconfiguration, nonhuman narrator, modality, presupposition, implicature.

Received: 20.08.26**Accepted:** 21.08.26**Published:** 22.08.26

Abstract: The article examines the lexical-stylistic and contextual-pragmatic categories of science-fiction prose through Kazuo Ishiguro's novel *Klara and the Sun*. It aims to reveal how familiar lexical items acquire new meanings in a near-future social order, how technological and institutional nominations shape the fictional world, and how presupposition, implicature, epistemic modality and speech acts function in the discourse of a nonhuman narrator. The analysis shows that the novel produces estrangement through semantic reconfiguration, functional naming, personification and a restricted perceptual viewpoint rather than through an abundance of technical neologisms.

ILMIY-FANTASTIK BADIY MATNNING LEKSIK-STILISTIK VA KONTEKSTUAL- PRAGMATIK KATEGORIYALARI: KAZUO ISHIGURONING "KLARA AND THE SUN" ROMANI MISOLIDA

Buviniso Mashrabova*Andijon davlat pedagogika instituti**assistant o'qituvchisi**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**buvinisomashrabova@gmail.com**Andijon, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: ilmiy fantastika, leksik-stilistik kategoriya, pragmatik stilistika, qayta maʼnolanish, noinsoniy hikoyachi, modallik, presuppozitsiya, implikatura.

Annotatsiya: Maqolada ilmiy-fantastik badiiy matnning leksik-stilistik va kontekstual-pragmatik kategoriyalari Kazuo Ishiguroning “Klara and the Sun” romani misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi oddiy leksik birliklarning kelajak jamiyati kontekstida qayta maʼnolanishi, texnologik va ijtimoiy nominatsiyalarning uslubiy vazifasi, shuningdek, noinsoniy hikoyachi nutqida presuppozitsiya, implikatura, modallik va nutqiy aktlarning namoyon boʻlishini aniqlashdan iborat. Tahlil natijasida romandagi fantastik taʼsir murakkab neologizmlar koʻpligi bilan emas, tanish birliklarning semantik siljishi, funksional nomlash, personifikatsiya va cheklangan idrok nuqtayi nazarini orqali yuzaga kelishi asoslandi.

ЛЕКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И КОНТЕКСТУАЛЬНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ НАУЧНО-ФАНТАСТИЧЕСКОГО ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА: НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО «КЛАРА И СОЛНЦЕ»

Бувинисо Маширабова

Ассистент кафедры,

доктор философии (PhD) по филологическим наукам,

Андижанский государственный педагогический институт

E-mail: buvinisomashrabova@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	научная	Аннотация:	В статье
фантастика, лексико-стилистическая категория, прагматическая стилстика, повторная семантизация, нечеловеческий рассказчик, модальность, presupпозиция, импликатура.		рассматриваются лексико-стилистические и контекстуально-прагматические категории научно-фантастического художественного текста на материале романа Кадзуо Исигуро «Клара и Солнце». Цель исследования состоит в выявлении повторной семантизации общеупотребительной лексики в условиях будущего социального устройства, стилистических функций технологических и институциональных номинаций, а также роли presupпозиции, импликатуры, эпистемической модальности и речевых актов в повествовании нечеловеческого рассказчика. Установлено, что эффект остроты создается не обилием сложных неологизмов, а семантическим сдвигом знакомых слов, функциональным именованием, персонификацией и ограниченной перспективой восприятия.	

Kirish. Ilmiy-fantastik proza mavjud bo'lmagan texnologiya yoki kelajak jamiyatini tasvirlashdan avval ularni til orqali tartibga soladi. Yangi predmet, ijtimoiy maqom va munosabatlarning nomlanishi o'quvchiga badiiy olamning ichki qoidalarini anglatadi; kontekst esa dastlab betaraf ko'ringan birliklarning yashirin mazmunini bosqichma-bosqich ochadi. Shu sababli ilmiy-fantastik matnni faqat termin va neologizmlar yig'indisi sifatida emas, leksik tanlov bilan pragmatik axborotning o'zaro ta'siridan tarkib topgan tizim sifatida o'rganish lozim.

Kazuo Ishiguroning 2021-yilda nashr etilgan "Klara and the Sun" romani bu jihatdan alohida e'tiborga molik. Asarda voqealar quyosh energiyasi bilan ishlaydigan Artificial Friend — Klara nigohi orqali bayon qilinadi. Muallif kelajak olamini murakkab texnik nomenklatura bilan to'ldirmaydi; aksincha, kundalik ingliz tilidagi friend, lifted, meeting, substitute, nourishment singari birliklarni yangi institutsional va axloqiy mazmunda qo'llaydi. Noinsoniy hikoyachining cheklangan bilimi esa matndagi aytilgan fikr bilan o'quvchi anglaydigan ma'no o'rtasida muntazam masofa hosil qiladi.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy fantastika poetikasida D.Suvinning kognitiv begonalashtirish va novum haqidagi qarashlari, P.Stockwellning janr tiliga bag'ishlangan lingvopoetik yondashuvi muhim nazariy tayanchdir. G.Lich va M.Short badiiy nasr uslubini leksik tanlov, grammatik qurilish, nutq va tafakkur taqdimoti hamda "mind style" tushunchasi orqali izohlaydi. E.Black pragmatik stilistikaning badiiy matndagi yashirin ma'no, ramz, nutqiy masofa va dialogik munosabatlarni ochish imkoniyatini ko'rsatadi. S.Levinson hamda Sh.Safarov tadqiqotlarida deysis, presuppozitsiya, implikatura, modallik va nutqiy aktlar ma'noning kontekstga bog'liq qatlamlari sifatida talqin qilinadi.

"Klara and the Sun"ga doir so'nggi izlanishlarda robotik hikoyachi va inson ongini anglash muammosi (G.Shang), mashina ko'rishi va yuz ifodalarini idrok etish (T.D.Sumner), sun'iy do'stning vaqt tajribasi (M.Shadurski), texnik hikoyachi va kognitiv majmua (M.Torres-Romero), kamera nigohiga yaqin tasvir usuli (T.S.Orlova) yoritilgan. Ushbu ishlar roman poetikasining muhim qatlamlarini ochgan bo'lsa-da, leksik-stilistik vositalar bilan kontekstual-pragmatik kategoriyalarning birgalikdagi ishlash mexanizmi yaxlit tasnif asosida yetarlicha ko'rsatilmagan.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot materiali sifatida "Klara and the Sun" romanining Faber & Faber nashri olindi. Maqsadli tanlanmaga texnologik va ijtimoiy nominatsiyalar, funksional shaxs nomlari, ramziy birliklar hamda mazmuni faqat kontekstda ochiladigan kommunikativ vaziyatlar kiritildi. Tahlilda leksik-semantik, komponent, stilistik, kontekstual-pragmatik va narrativ nuqtayi nazar metodlari uyg'unlashtirildi. Dastlab birlikning umumtil ma'nosi belgilandi, keyin uning roman olamidagi semantik siljishi, uslubiy vazifasi va o'quvchida yuzaga keltiradigan pragmatik xulosasi aniqlandi.

Leksik-stilistik kategoriyalar. Roman leksikonining markazida Artificial Friend va uning AF qisqartmasi turadi. “Robot” o‘rniga “do‘st” komponentining tanlanishi texnologik mahsulotni munosabat va g‘amxo‘rlik doirasida ko‘rsatadi. B2 va B3 kabi model nomlari esa sun‘iy mavjudotlarning bozordagi yangilanadigan tovar maqomini eslatadi. Shunday qilib, bitta nominatsiya yaqinlik semasini, ikkinchisi esa standartlashuv va eskirish semasini faollashtiradi.

Lifted va unlifted birliklari ijtimoiy tabaqalanishni ochuvchi semantik oppozitsiyadir. Lift fe‘lining “yuqoriga ko‘tarish” ma‘nosi kontekstda genetik o‘zgartirish, ta‘lim imkoniyati va yuqori maqom bilan bog‘lanadi. Ijobiy yo‘nalishdagi so‘z xavfli tibbiy amaliyot hamda tengsizlikni yumshoq shaklda ifodalaydi. Interaction meeting ham xuddi shunday: rasmiy va betaraf birikma uyda ta‘lim olgan bolalarning majburiy ijtimoiylashuvini nomlaydi.

Manager, the Mother, the Father, Beggar Man, Coffee Cup Lady kabi nomlar qahramonlarni shaxsiy tarixidan ko‘ra vazifasi yoki ko‘rinadigan belgisi asosida tasniflaydi. Bu usul Klaraning “mind style”ini yaratadi: u insonlarni biografik yaxlitlik sifatida emas, kuzatilgan rol va xususiyatlar majmui sifatida qabul qiladi. Sun, Pollution va Cootings Machine birliklarining bosh harf bilan yozilishi ham oddiy referentlarni ramziy kuchlarga aylantiradi. Sun hayot va mehr manbai, Pollution tahdid, Cootings Machine esa texnologik zarar timsoli bo‘lib ko‘rinadi.

1-jadval. Romandagi asosiy leksik-stilistik kategoriyalar

Kategoriya	Asosiy birliklar	Semantik-stilistik xususiyat	Badiiy vazifa
Texnologik nominatsiya	Artificial Friend, AF, B2, B3	Yaqinlik ma‘nosi bilan mahsulot kodining qarama-qarshiligi	Sun‘iy mavjudotning hamroh va tovar maqomini birlashtirish
Institutsional qayta nomlash	lifted, unlifted, interaction meeting	Ijtimoiy tengsizlikni betaraf va ijobiy leksika bilan ifodalash	Distopik tuzumni kundalik hodisadek ko‘rsatish
Funksional nomlash	Manager, the Mother, the Father	Shaxsni rol va maqom orqali identifikatsiya qilish	Noinsoniy idrokning tasniflovchi tabiatini ochish
Ramziy personifikatsiya	Sun, Pollution, Cootings Machine	Bosh harf, takror va jonlantirish	Ekologik ziddiyatni mifopoetik modelga aylantirish
Perseptiv begonalashtirish	boxes, patterns, machine birds	Narsani insoncha emas, texnik kuzatuv shaklida nomlash	Mashina nigohi va cheklangan anglashni ifodalash

Kontekstual-pragmatik kategoriyalar. Klaraning hikoyasi birinchi shaxs shaklida berilgan bo‘lsa-da, uning bilimi inson tajribasi bilan teng emas. Store, window, house va barn kabi makonlar deyktik markaz vazifasini bajarib, dunyoni ko‘rish nuqtasiga qarab bo‘laklaydi. Do‘kon oynasi tashqi hayotni kuzatish maydoni, uy inson munosabatlarini o‘rganish makoni, ombor esa Sun bilan yashirin muloqot joyiga aylanadi. Makon almashgan sari hikoyachining axborot doirasi kengayadi, biroq uning talqini to‘liq ishonchli bo‘lib qolmaydi.

Epistemik modallik Klaraning bilish chegarasini sezdiradi. U kuzatuvlarini ko'pincha taxmin, ehtimol va "shunday deb o'yladim" mazmunidagi birliklar bilan beradi. Bu ehtiyotkor ohang o'quvchini hikoyachi xulosalarini qayta tekshirishga undaydi. Klara odam yuzidagi hissiy qarama-qarshilikni boxes va patterns orqali qayd etadi, ammo ularning sababini har doim anglay olmaydi; natijada ko'rish aniqligi bilan ma'no noaniqligi bir vaqtda mavjud bo'ladi.

Presuppozitsiya va implikatura kelajak jamiyatining axloqiy tuzilishini oshkora izohsiz ochadi. Lifted atamasi genetik kuchaytirish odatiy va maqbul amaliyot ekanini oldindan qabul qildiradi; unlifted esa kamchilik sifatida baholanadi. Substitute haqidagi suhbatlar inson shaxsini tashqi belgi va xulq namunasi bilan qayta yaratish mumkinligi haqidagi xavfli taxminni yashiradi. Kattalarning ehtiyotkor, to'liq aytilmagan nutqi ostida Josiening o'lim ehtimoli va Klaraning uning o'rnini egallashi haqidagi ma'no yuzaga chiqadi.

Nutqiy aktlar ham ikki xil anglash tizimini qarama-qarshi qo'yadi. Josiening va'dalari Klara uchun qat'iy majburiyat bo'lib tuyuladi, insonlar uchun esa ular vaziyatga bog'liq istak bo'lishi mumkin. Motherning topshiriqlari va Mr Capaldining takliflari direktiv hamda ishontiruvchi kuchga ega; Klaraning Sun oldidagi iltijosi esa iltimos, va'da va qurbonlikni birlashtirgan murakkab aktdir. Sun real adresat ekanligi isbotlanmagan bo'lsa ham, ushbu murojaat qahramonning keyingi harakatlarini boshqaradi.

2-jadval. Kontekstual-pragmatik kategoriyalarning matndagi voqelanishi

Kategoriya	Til va kontekst belgisi	Pragmatik natija	O'quvchiga ta'siri
Deyksis	store, window, house, barn	Bilim ko'rish nuqtasi va makon bilan chegaralanadi	Badiiy olam bosqichma-bosqich ochiladi
Epistemik modallik	taxmin, ehtimol, kuzatuvga tayangan xulosa	Hikoyachining bilish chegarasi ko'rinadi	O'quvchi aytilmagan sabablarni mustaqil tiklaydi
Presuppozitsiya	lifted, unlifted, interaction meeting	Tengsizlik va nazorat "normal" holat sifatida beriladi	Ijtimoiy tuzumning yashirin me'yorlari anglashiladi
Implikatura	substitute haqidagi to'liq aytilmagan suhbatlar	O'lim va almashtirish mazmuni bilvosita yuzaga chiqadi	Axloqiy ziddiyat kuchayadi
Nutqiy akt	va'da, topshiriq, iltijo, kelishuv	So'z qahramon xatti-harakatini belgilaydi	Inson va mashinaning majburiyatni turlicha tushunishi ochiladi

Natijalar va muhokama. Tahlil leksik-stilistik hamda kontekstual-pragmatik qatlamlar bir-biridan ajralgan holda ishlamasligini ko'rsatdi. Artificial Friend nomi avvalo uslubiy yumshatish bo'lsa, kontekstda u bolalarning yolg'izligi va texnologik hamrohning sotib olinishi haqidagi presuppozitsiyani tug'diradi. Lifted birligi semantik ko'tarilish taassurotini beradi, biroq syujet davomida uning kasallik, tabaqalanish va ijtimoiy imtiyoz bilan bog'liqligi ochiladi. Sun personifikatsiyasi esa metaforik vosita bo'lish bilan cheklanmay, Klaraning iltijo va kelishuv aktlarini mantiqan asoslaydigan pragmatik adresatni yaratadi.

Roman poetikasining ikki qatlamli tuzilishi shu yerda ko'rinadi: yuzada sodda, xotirjam va odatiy leksika mavjud; ichki qatlamda esa genetik tanlov, sun'iy ong, shaxsni almashtirish va ijtimoiy tengsizlik kabi keskin muammolar yashiringan. Hikoyachi ularni to'liq nomlay olmagan uchun o'quvchi presuppozitsiya, takror, sukut va kontekstual nomuvofiqliklardan kelib chiqib chuqur ma'noni tiklaydi. Fantastik ta'sir notanish so'zlarning ko'pligidan emas, tanish birlik bilan yangi referent o'rtasidagi masofadan hosil bo'ladi.

Xulosa. Kazuo Ishiguroning "Klara and the Sun" romanida ilmiy-fantastik badiiy olam leksik-stilistik tanlov va pragmatik axborotning o'zaro uyg'unligi orqali shakllanadi. Artificial Friend, lifted, interaction meeting, substitute kabi birliklar umumtil ma'nosini saqlagan holda yangi institutsional sema kasb etadi; Manager, Mother va Father singari funksional nomlar esa noinsoniy hikoyachining tasniflovchi idrokini ko'rsatadi. Sun, Pollution va Cootings Machine personifikatsiyasi texnologiya, ekologiya va e'tiqod o'rtasidagi ziddiyatni ramziy sathga olib chiqadi.

Kontekstual-pragmatik tahlil deyksis, epistemik modallik, presuppozitsiya, implikatura va nutqiy aktlarning badiiy ma'noni boshqarishini aniqladi. Klara ko'rgan narsasini aniq qayd etishi mumkin, biroq insoniy niyat va yashirin munosabatlarni to'liq anglamaydi. Shu tafovut o'quvchini faol talqinga jalb etib, romandagi dramatik ironiya va axloqiy bezovtalikni kuchaytiradi.

Demak, ilmiy-fantastik matnning leksik-stilistik va kontekstual-pragmatik kategoriyalarini yaxlit tahlil qilish badiiy olamning qanday nomlanishi bilan uning qanday anglatilishi o'rtasidagi munosabatni ochadi. "Klara and the Sun" misolida fantastik til murakkab terminlar tizimidan ko'ra, oddiy so'zlarning yangi ijtimoiy sharoitda qayta ma'nolanishi hamda noinsoniy nuqtayi nazarning axborotni cheklab berishi orqali o'ziga xoslik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova, D. U., & Galieva, M. R. (2016). Stylistics of Literary Text. Tashkent: Turon-Iqbol.
2. Black, E. (2006). Pragmatic Stylistics. Edinburgh: Edinburgh University Press.
3. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts (pp. 41–58). New York: Academic Press.

4. Ishiguro, K. (2021). *Klara and the Sun*. London: Faber & Faber.
5. Leech, G. N., & Short, M. (2007). *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose* (2nd ed.). Harlow: Pearson Longman.
6. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Orlova, T. S. (2025). Constructing the Camera Gaze and the Problem of Simulated Emotions in Kazuo Ishiguro's "Klara and the Sun". *Philology. Theory & Practice*, 18(6), 2429–2433. <https://doi.org/10.30853/phil20250341>
8. Ryan, M.-L. (1991). *Possible Worlds, Artificial Intelligence, and Narrative Theory*. Bloomington: Indiana University Press.
9. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: Fan.
10. Shang, G. (2024). Robotic Narrative, Mindreading and Kazuo Ishiguro's *Klara and the Sun*. *Journal of Literary Studies*, 40, 1–17. <https://doi.org/10.25159/1753-5387/14849>
11. Shadurski, M. (2023). The Timescape of an Artificial Friend: Posthumous Life in Kazuo Ishiguro's *Klara and the Sun*. *Roczniki Humanistyczne*, 71(11), 85–103. <https://doi.org/10.18290/rh237111.5>
12. Simpson, P. (2004). *Stylistics: A Resource Book for Students*. London: Routledge.
13. Stockwell, P. (2000). *The Poetics of Science Fiction*. Harlow: Longman.
14. Sumner, T. D. (2023). Pixel, Partition, Persona: Machine Vision and Face Recognition in Kazuo Ishiguro's *Klara and the Sun*. *Open Library of Humanities*, 9(2), 1–23. <https://doi.org/10.16995/olh.10257>
15. Suvin, D. (1979). *Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre*. New Haven: Yale University Press.
16. Torres-Romero, M. (2025). Technical Narrators and the Possibilities of Cognitive Assemblages in Kazuo Ishiguro's *Klara and the Sun*. *ES Review. Spanish Journal of English Studies*, 46, 212–242. <https://doi.org/10.24197/3g6pec58>